

"Matematika instituti byulleteni" elektron jurnali



"**Matematika instituti byulleteni**" elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti va O'zbekiston Matematika Jamiyati tomonidan 2018 yilda ta'sis etilgan bo'lib, yiliga 6 ta son shaklida chop etilishi rejalangan. Chop etiladigan ilmiy maqolalar hajmiga cheklov qo'yilmaydi.

Jurnalda chop etiladigan ilmiy maqolalar 3 tilda: o'zbek, rus va ingliz tillarida bo'lishi nazarda tutilgan.

Tahririyat a'zolari matematikaning turli ilmiy yo'nalishlarida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar bo'lib, jurnal faoliyatida muhim ahamiyatga egalar.

Bosh muharrir



Shavkat Abdullayevich Ayupov

14.09.1952 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan.

Mutaxassisligi: Matematika

Ish joyi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi (1995), fizika-matematika fanlari doktori (1983), professor (1985).

Toshkent davlat universitetining matematika fakultetini tugatgan (1974). ToshDU da o`qituvchi (1977 - 1979) va O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Matematika institutida kattailmiy xodim (1979 - 1988), algebra va analiz bo`limi mudiri (1986 yildan), direktor o`rinbosari (1986 - 1992), direktor (1992 - 1997). O`zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya Komissiyasi raisi, oliy va o`rtamaksus ta`lim vazirining o`rinbosari bo`lib ishlagan. Asosiy ilmiy ishlari funksionalanaliz va uning zamonaviy tarmoklaridan biri hisoblangan operatorlar algebralari nazariyasiga oid. Ayupov Shavkat Abdullaevich No associativ algebralari sohasida ham nazariy, ham tatbiqiy yo`nalishda yirik ilmiy maktab yaratdi.

Sh.Ayupov - O`zbekiston FA akademigi (1995 yildan), O`zbekiston Respublikasi Fan Arbobi (2011 y), I-chi darajali O`zbekiston Davlat mukofoti sovrindori (2017 y.) 2003 yildan Butun Jahon Fanlar Akademiyasi (TWAS) xaqiqiy a`zosi.

Manzil: 100170, O`zbekiston Respublikasi. Toshkent shahri. Mirzo-Ulug'bek tumani. Mirzo Ulug'bek ko'chasi 81-uy

Telefon: (+998-71) 262-75-44

Faks: (+998-71) 262-73-57

E-mail: matinstbul@gmail.com

Sayt: <http://mib.mathinst.uz/home.html>

Maqolalarni qabul qilish qoidalari